

HOKIMIYAT VAKILI YOKI FUQAROVIY BURCHINI BAJARAYOTGAN SHAXS ZARURIY MUDOFAA CHEGARASIDAN CHETGA CHIQISHI NATIJASIDA SODIR ETILGAN JINOYATLARINI TERGOV KILISH USLUBIYOTI

Hakimjonov Maqsudjon Mahmud o'g'li
Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi dekani
Maqsudbekmahmudovich777@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi natijasida guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki Ayblanuvchi tomonidan sodir etilgan jinoyatlarini tergov qilish uslubiyoti va uning o'ziga xos jihatlari bayon qilinadi. Bundan tashqari maqolada Hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan holatlar bo'yicha jinoyatlarini tergov qilishda tergov harakatlarini o'tkazishga tayorgarlik ko'rishda amalga oshiriladigan choratadbirlar, tergov harakatlarini o'tkazish davomida qo'llaniladigan taktik usullarni tanlash, tergov vaziyatiga mos bo'lgan taktik usullardan foydalanish kabi masalalar keng yoritilib o'tiladi. Tatqiqot natijasida kelingan xulosalar yuzasidan milliy qonunchillikka bir qancha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs, tergov organlari, tergov uslubiyoti, tergov taktikasi, hokimiyat vakili, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, jinoiy tajovuz.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрена методика расследования преступлений, совершенных подозреваемым, обвиняемым или обвиняемым в результате отступления от пределов необходимой обороны представителем власти или лицом, исполняющим гражданский долг, и ее особенности. Кроме того, в статье описаны меры, которые должны быть приняты при подготовке к производству следственных действий в случаях уклонения представителя Органа или лица, исполняющего гражданский долг, от необходимых пределов обороны, выбор тактических приемов, применяемых в ходе следствия, дознания. подробно освещаются такие вопросы, как использование тактических методов, соответствующих ситуаций. На основе выводов, сделанных в результате исследования, внесен ряд предложений и рекомендаций в национальное законодательство.

Ключевые слова: лицо, исполняющее гражданский долг, следственные органы, следственная методика, следственная тактика, представитель власти, необходимая оборона, последняя необходимость, преступная агрессия.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib hokimiyat vakiliga yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyatlari boshqaruva tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatchilik xarakterini o'zida aks etib unga qarshi keskin kurash olib borishni taqozo etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish masalasiga har doim jiddiy e'tibor qaratgan. Buning asosiy sababi shundaki, XXI asrga kelib ushbu turdagi jinoyatlar davlat boshqaruvini izdan chiqarish xarakterni o'zida kasb etib, kundan-kunga ushbu jinoyatni sodir etishning yangicha usullari paydo bo'lib bormoqda. Ammo, ushu jinoyatchilikning sodir etilishini yana bir o'ziga xos xususiyati borki, bunda hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxsning o'zi zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishib qonunga xilof ravishda xatti-harakatlarni amalga oshiradi va buning natijasida aybdor shaxs unga faol qarshilik ko'rsatadi va jinoyat sodir qiladi. SHuning uchun xam ushubu holatlarda tergov qilishning alohida metodikasi qo'llash hamda to'g'ri taktik tergov harakatlarini amalga oshirish zarur.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

➤ Hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi natijasida sodir etilgan jinoyatni kriminologik tavsifini o'rGANISH;

➤ Hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi natijasida sodir etilgan jinoyatlarining xalqaro-huquqiy normalarini xalqaro hamda milliy huquqda o'rganish predmeti sifatida tahlil qilish;

➤ Hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi natijasida sodir etilgan jinoyatlarni usullari va ularni oldini olish amaliyotidagi xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rGANISH;

➤ Chet el davlatlarida hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi natijasida sodir etilgan jinoyatlariga qarshi kurashishda HMQO faoliyatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish.

Yuridik fanlar doktori proffessor M.X.Rustambaev o‘zining “O‘zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksiga sharh” kitobida hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish jinoyatini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun quydagilarni aniqlash kerakligini ta’kitlaydi.

“birinchidan, qarshilik ko‘rsatish hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxsning qonuniy, ya’niy qonunga zid bo‘lmagan harakatlariga qarshi yo‘naltirilganligi;

ikkinchidan, qarshilik ko‘rsatish shaxs tomonidan o‘z xizmat vazifasi yoki fuqaroviylar burchi ijro etiayotgan vaqtida sodir etilganligi”¹

Demak, ushbu yuqorida keltirilgan masalalarga aniqlik kiritgandan keyingina aybdorning qilmishi JKning 219-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin bo‘ladi.

“**Zaruriy mudofaa** – qonun bilan muxofaza qilinadigan ob’ektlarni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish jarayonida tajovuzkorga shunday zarar etkazish yo‘li bilan amalga oshiriladigan huquqiy mudofaani o‘z ichiga oladiki, bunday mudofaa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib amalga oshirilganda mudofaalanuvchi shaxsning jinoiy javobgarlini keltirib chiqaradi.”²

Ushbu holatlarda ushbu turdagи jinoyatlarni tergov qilishda avvalo tergovchi zaruriy mudofaa chegarasini hisobga olgan holda tergov harakatlarini amalga oshirishi lozim.

Tajovuzning oldi olingan yoki tugagandan so‘ng va himoya vositalarini qo‘llash zaruriyati aniq yo‘qolganda hokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxsning tajovuz qiluvchiga zarar etkazganlikdagi harakati zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Bunday holatlarda javobgarlik umumiylasoslarda yuz beradi. Ayblanuvchining bunday harakatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berish maqsadida Tergov organlari yuz bergan voqeanning barcha holatlarini hisobga olib, bu harakatlar ular tomonidan ijtimoiy xavfli tajovuz sababli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan yoki etilmaganligini aniqlashlari zarur. Bundan tashqari hokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxsning o‘zi qasddan g‘arazli maqsadlarda qarshilik ko‘rsatayotgan shaxsning yaqoratlab nafoniyatiga tegishi oqibatida oddiy qarshilikni faol qarshilik ro’satishga sababchi bo’lsa yoki bunung natijasida o‘zi tan jarohati olsa Tergov organlari tergov jarayonida albatta bunday holatlarni inobatga olgan holda aadolatli tergov ishlarini amalga oshirmoqlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharh maxsus qism / M.Rustamboev. – Toshkent: “Adolat”, 2016. – 599 bet

² O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharh umumiylasoslarda qism / M.Rustamboev. – Toshkent: “Adolat”, 2016. – 288 bet

darkor. Shu bilan birgalikda, agarda shaxs ziyon etkazish (urishish, azob berish, o‘ch olish va boshqalar) niyatida hujumning kelib chiqishiga sababchi bo‘lsa, bunday harakatlarni zaruriy mudofaa yo‘sinda qilingan deb topish mumkin emas. Bu holatlarda sodir etilgan xatti-harakatlar umumiy asoslarda tavsiflanishi lozim.

Hokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi natijasida sodir etilgan jinoyatlarini tergov kilish uslubiyoti masalalari ushbu turdagagi jinoyatlarni olidini olishning zamonaaviy usullari va rivojlangan mamalakatlarning amaliyot yo‘li va ushbu turdagagi jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha takliflar berilgan. Ushbu tadqiqot ishining ob’ekti respublika davlat boshqaruvi, jamoat xavfsizligi bo‘lib, u ob’ektiv tomondan zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chikish mudofaaning tajovuz xarakteri (xususiyati) va xavflilik darajasi ochiq-oydin butunlay muvofiq bo‘lmashligida namoyon bo‘ladi. Bunda tajovuzchiga jinoiy qilmish sodir etilganda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatga qaraganda og‘irroq zarar etkazilishi bilan ifodalanadi.

Tergov organlari tergov jarayonida Jinoyat kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan harakatlar uni sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilganligi yoki aqli norasolik tufayli, jinoiy javobgarlik yoshiga to‘limganligi sababli va boshqa asoslarga ko‘ra javobgarlikdan ozod qilinganligidan qat’i nazar, Jinoyat kodeksining 37-moddasi doirasida himoyalanishiga asos beruvchi ijtimoiy xavfli tajovuz deb hisoblanadi. Demak, Tergov organlari zaruriy mudofaa holati faqatgina ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bergan paytning o‘zidagina emas, balki tajovuzning boshlanish xavfi mavjud bo‘lgan hollarda ham vujudga keladi. Zaruriy mudofaa holati tajovuz tugagandan so‘ng ham bo‘lishi mumkin, agarhokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxs ish holatlariga ko‘ra tajovuz tugagan vaqtini aniq anglay olmagan bo‘lsa. Hujum vaqtida ishlatilgan qurol va boshqa ashyolarning tajovuzchidanhokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxs ning qo‘liga o‘tib qolishining o‘zi tajovuz tugaganligidan dalolat bermaydi. Tajovuzning oldi olingan yoki tugagandan so‘ng va himoya vositalarini qo‘llash zaruriyati aniq yo‘qolgandahokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxs ning tajovuz qiluvchiga zarar etkazganlikdagi harakati zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Bunday holatlarda javobgarlik umumiy asoslarda yuz beradi. Ayblanuvchining bunday harakatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berish maqsadida Tergov organlari yuz bergan voqeanning barcha holatlarini hisobga olib, bu harakatlar ular tomonidan ijtimoiy xavfli tajovuz sababli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan- etilmaganligini aniqlashlari zarur. Tergov organlari shuni nazarda tutishlari kerakki, agar shaxs ziyon etkazish (urishish, azob berish, o‘ch olish va

boshqalar) niyatida hujumning kelib chiqishiga sababchi bo'lsa, bunday harakatlarni zaruriy mudofaa yo'sinda qilingan deb topish mumkin emas. Bu holatlarda sodir etilgan xatti-harakatlar umumiy asoslarda tavsiflanishi lozim. Tergov organlari zaruriy mudofaa alomatlari bor yoki yo'qligi masalasini hal etishda himoyalanish va hujum vositalarini hisobga olishdan tashqari, tajovuzchi tomonidan hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxsga tug'dirilgan xavfning xarakteri, himoyaning kuchi va tajovuzni qaytarish imkoniyatlari, shuningdek, hujum vahokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs ning kuchi nisbatlariga ta'sir ko'rsatuvchi ishdagi barcha holatlarini (hujum qiluvchi va hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxslarning soni, ularning yoshi, jismoniy quvvati, quroli, joy, vaqt va boshqalar) hisobga olishlari zarur.

Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarning har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko'rishga haqli. Tajovuz tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs hamma vaqt ham yuz bergen xavfning xarakterini aniq anglab olmasligi va himoyaning tajovuzga nisbatan muvofi q usulini tanlay olmasligini Tergov organlari e'tiborda tutishlari kerak. Agar tajovuz qiluvchigahokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs tomonidan etkazilgan zarar, tajovuz qiluvchining etkazgan zararidan ko'p bo'lsa va tajovuz oqibatida etkazilgan zararni to'la qoplasa hamda himoyalanish tajovuzning xarakteri va xavflilik darajasiga nisbatan butunlay nomuvofiq bo'lishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, bunday holdahokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs ning harakatlarini zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan deb hisoblash mumkin emas. *Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir tan jarohati etkazilganlik tajovuzchining o'limiga olib kelsa, hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxsning aybi tajovuzchining o'limiga nisbatan ehtiyoitsizlik oqibatida yuz bergen bo'lsa, Jinoyat kodeksining 107-moddasi bilan tavsiflanishi kerak.* "Tergov organlari zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib, sodir etilgan qasddan odam o'ldirish, qasddan og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati etkazish jinoyatlarini kuchli hayajonlanish holatida yuz bergen odam o'ldirish, og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohatlari etkazish jinoyatlaridan farq qila bilishlari kerak."³

³ Averyanova T.V., Belkin R.S., Korxov Yu.G., Rossinskaya E.R. Kriminalistika. Uchebnik dlya vuzov. Pod red. Zaslujennogo deyatelya nauki Rossiyskoy Federatsii, professor R.S.Belkina. - M.: Izdatelstvo gruppa NORMA-INFRA., 2009 – 438 bet

Bunday holatlarda shuni nazarda tutish kerakki, hokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi va kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida sodir etilgan jinoyatlarda jabrlanuvchiga zarar etkazish himoyalanish maqsadida bo‘lmaydi, demak, zaruriy mudofaa holatida ham yuz bermaydi. Bundan tashqari jabrlanuvchining xatti-harakatlari tufayli to‘satdan yuz bergen ruhiy hayajonlanish jinoyatlari (Jinoyat kodeksining 98, 106-moddalari) xuddi shunday hayajonlanish ta’siri ostida vujudga keladi, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan jinoyatlar uchun esa bunday belgi bo‘lishi shart emas. Agar hokimiyat vakili yoki fuqaroviylar burchini bajarayotgan shaxs to‘satdan yuz bergen kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqsa, ayblanuvchining harakati Jinoyat kodeksining 100 yoki 107-moddalari bilan tavsiflanishi kerak. Tergov organlari zaruriy mudofaa holatini aniq ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bermasada, shaxsning yanglishib, shunday tajovuz qilishi mumkin degan taxminiy holatlaridan farqlashlari kerak. Agar hodisa holatlariga ko‘ra, mudofaa choralarini qo‘llagan shaxs o‘zining yanglishganini bilmagan va bilishi ham mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanishi kerak. Agar shaxs tajovuzning aslida yo‘q va xayoliyligini bila turib, ish holatlariga ko‘ra ham uni albatta bilishi mumkin bo‘lgani holda zarar etkazsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining ehtiyyotsizlik orqasida zarar etkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim. Tergov organlari Ayblanuvchining harakatlarida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish alomatlari bor deb hisoblaganda, ish holatini umumiy ta’riflash bilan chegaralanmay, hukmda ish yuzasidan aniqlangan hamma holatlarga asoslanib, himoyaning hujum xarakteri va xavflilik darajasiga butunlay nomuvofiq ekanligini anglatuvchi o‘z xulosasini bayon qilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1996 yil 20 dekabrdagi 39-sonli “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi plenum qarorining 13-bandida bu haqida quydagicha tushuntirish berilgan. “Sudlar zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonunlarni qo‘llash bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha dastlabki tergov sifatiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirishlari, jinoiy tajovuzga daxldor barcha shaxslar javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligini aniqlashlari va asoslar mavjud bo‘lganda, ularni javobgarlikka tortish masalasini hal etish uchun bu haqda prokurorga xabar berishlari (JPK 417-moddasi) lozim.”⁴

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1996-yil 20-dekabrdagi 39-sonli “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi plenum qarori

Ushbu plenum qarorida sudlar tomonida jinoyatni to'laqonli adolatli ochilishi uchun barcha tavsiotlariga e'tibor qaratishi kerak ekanligi tushuntirib berilgan.

Yuqoridagi plenum qarorining 14-bandida esa zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish natijasida etkazilgan zararni undirish masalasida quydagicha tushuntirish berilgan. "Sudlarining e'tibori shunga jalg etilsinki, zaruriy mudofaa holatida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmay etkazilgan zarar Fuqarolik kodeksining 987-moddasiga ko'ra undirilmaydi. Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish natijasida etkazilgan zararni undirish vaqtida ish holatlariga, mudofaalanuvchi va tajovuz qiluvchi shaxslarning ayb darajasiga e'tibor berilgan holda zarar miqdori kamaytirilishi yoki uni undirish haqidagi talab rad etilishi mumkin."⁵

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tergov organlari hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishi natijasida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda avvalo tergovchi zaruriy mudofaa chegarasini hisobga olgan holda tergov harakatlarini amalga oshirishi lozim. Tajovuzning oldi olingan yoki tugagandan so'ng va himoya vositalarini qo'llash zaruriyati aniq yo'qolganda hokimiyat vakili yoki fuqarovi burchini bajarayotgan shaxsning tajovuz qiluvchiga zarar etkazganlikdagi harakati zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Bunday holatlarda javobgarlik umumiylasoslarda yuz beradi. Ayblanuvchining bunday harakatlariga to'g'ri huquqiy baho berish maqsadida Tergov organlari yuz bergen voqeanning barcha holatlarini hisobga olib, bu harakatlar ular tomonidan ijtimoiy xavfli tajovuz sababli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan yoki etilmaganligini aniqlashlari zarur.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharh maxsus qism / M.Rustamboev. – Toshkent: "Adolat", 2016. – 959 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharh umumiylasoslarda yuz beradi. Ayblanuvchining bunday harakatlariga to'g'ri huquqiy baho berish maqsadida Tergov organlari yuz bergen voqeanning barcha holatlarini hisobga olib, bu harakatlar ular tomonidan ijtimoiy xavfli tajovuz sababli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan yoki etilmaganligini aniqlashlari zarur.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Adolat, 2021. 671 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Adolat, 2021. 527 b.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1996-yil 20-dekabrdagi 39-sonli "Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta'minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida"gi plenum qarori

-
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1996 yil 20 dekabrdagi 39-sonli “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi plenum qarori
 7. Международное уголовное право. Под общим редактором А.В.Бриллиантова. Москва, Юрайт. 2017. 749 с.
 8. Асадов, Ш. Ф. У. (2022). КОНСУЛЬТАЦИОННЫЕ УСЛУГИ: КАК УСЛУГИ ОКАЗЫВАЕМЫЕ НА ВОЗМЕЗДНОМ ОСНОВЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(7), 716-723.
 9. Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Э.Р. Криминология. Учебник для вузов. Под ред. Заслуженного деятеля науки Российской Федерации, профессора Белкина Р.С. - М.: Издательство группа НОРМА-ИНФРА. М., 1999. - С. 688.
 10. Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корхов Ю.Г., Россинская Е.Р. Криминология. Учебник для вузов. Под ред. Заслуженного деятеля науки Российской Федерации, профессор Белкина Р.С.- М.: Издательство группа НОРМА-ИНФРА., 2009 – С. 688
 11. Кодекс авторского права Федеративной Республики Германии. <http://law.edu.ru/norm/norm.asp?normID=1242733&subID=100102942,100102944>
 12. Ugolovnyu Kodeks Rossiyskoy Federatsii.
<http://www.consultant.ru/popular/ukrf/>
 13. Ugolovnoe pravo Rossii. Osobennaya chast / Pod red. A. I. Raroga. – M, 1997. – S. 153.